



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMYIY JURNALI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MHXSNI QO'LLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Xushnud Rizayev

Bank-moliya akademiyasi doktoranti

Yozishmalar uchun electron pochta: xushnudrizayev@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Annotatsiya

Topshirilgan vaqti: 09.07.2024

Qabul qilingan vaqti: 18.07.2024

Tayanch so'z va iboralar:

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 12-foyd soliqlari, Moliyaviy hisobning xalqaro standarti, MHXSning rasmiy tarjimasi, soliq kodeksi, soliqlar, raqamlashtirish.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari (MHXS)- bu tashqi foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun muhim bo'lgan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash qoidalarini belgilaydigan standart va sharhlar majmuasidir. Standartlar xalqaro notijorat tashkiloti, ya'ni MHXS fondi tomonidan ishlab chiqiladi. O'z navbatida fond ikkita qismdan iborat bulib, MHXS Kengashi va MHXS sharhi bo'yicha Qo'mitadan tashkil topgan. Standart qoidalarini to'g'ri talqin qilish, ba'zi bir alohida holatlarda qoidalarini qo'llashda izohlar berish maqsadida, hozirgi kungacha MHXS sharhi bo'yicha Qo'mita tomonidan 23 ta standartlarga sharhlar ishlab chiqilgan. Maqolada, yuqorida qayd etilgan xujjatlardan 12-"Foyda soliqlari" MHXSni Respublikamiz amaliyotiga joriy etish va qo'llanishidagi muxim hisoblangan masalalar va ularning echimlari bo'yicha tadqiqot yoritilgan.

IMPROVING THE PRACTICE OF IMPLEMENTATION OF IFRS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Xushnud Rizayev

PhD student of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Abstract

Received: 09.07.2024

Accepted: 18.07.2024

Key words: *International*

Accounting Standard, International Accounting Standard-12 "Income Taxes", International Financial Accounting Standard, official translation of IFRS, tax code, taxes, digitalization.

International Financial Reporting Standards (IFRS) is a set of standards and comments that define the rules for preparing financial statements that are important for external users to make economic decisions. The standards are developed by an international non-profit organization, that is, the S Foundation. In turn, the fund consists of two parts, consisting of the Council of the Ministry of Finance and the Committee on the review of the Ministry of Finance. In order to correctly interpret the provisions of the standard, to give comments on the application of the provisions in some special cases, until now, the Committee on the review of the International Standards Committee has developed 23 comments on the standards. In the article, the research on the important issues and their solutions in the implementation and application of the 12th "Profit Taxes" IFRS in the practice of our Republic from the above-mentioned documents is covered.

Kirish

O'zbekistonda 2021 yil oxiridan boshlab BHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash belgilandi. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qabul qilish" 1-sonli BHMSGa muvofiq, MHXSga o'tgan yuridik shaxslar o'zlarining birinchi moliyaviy hisobotlarini 2022-

yil 31-dekabrgacha tayyorlashlari shart ekanligi qayd etilgan. Shundan kelib chiqib iqtisodiyotda tadbirkorlik sub'ektlarining MHXS.lariga murojaat qilishi ta'biy. Yuqoridagilarga asosan ushbu standartlarni o'zbek tiliga tarjima qilish zarurati yuzaga kelgan. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2020-yil 24-avgustdagi 507-son qarori bilan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'g'risidagi nizom va unga eslatmalar matnini e'tirof etish tartibi tasdiqlandi. Nizomga muvofiq, 2020-yil 11-noyabrda Moliya vazirligi va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari jamg'armasi (MHXS jamg'armasi) o'rtasida "2045-uz-MOF-Open Licence with Translation-2020" shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish boshlandi. Moliya vazirligining 2020-yil 12-oktabrdagi 92-sonli "MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi Buyrug'iga asosan 62 ta BHMS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi. So'ng O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 10-noyabrdagi "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari matnini va ularga tushuntirishlarni O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun e'tirof etish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i qabul qilinib, buyruq "Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda 3400 raqami bilan ro'yxatga olingan. MHXS hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert komissiyasi a'zolari taniqli mutaxassislar, Minovar To'laxo'jaeva, Aziz Zakirxo'jaev, Nurbek Rizaev, Jamshid Sayfulloev, Fayzullo Soliboev, Azizbek Toshpo'latov ekspertiza jarayonlarida ishtirok etishgan. Biroq, MHXSni joriy etish har qanday boshqa jarayon kabi, qiyinchiliklar va tizimdan-tizimga o'tish bilan bog'liq muammolar bilan chambarchas bog'liq. MHXSga o'tishni xohlovchi kompaniyalar duch keladigan birinchi muammo bu mutaxassislarning fikrlash omilidir. Xalqaro va milliy standartlar nuqtai nazaridan tushunchalardagi sezilarli farqlar hisob-kitobga mas'ul bo'lgan xodimlarini psixologik qayta qurish zaruriyatiga olib keladi (Rizaev N.K., Xotamov K.R. 2021). MHXS qo'mitasi talablariga ko'ra, xalqaro standartlarni joriy etishga qaror qilgan davlatlar asl matnga izoh berish yoki o'zgartirish huquqiga ega emas. Boshqacha qilib aytganda, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishga rozi bo'lgan davlatlar barcha korxona, kompaniya va tashkilotlarni asl matn bilan ishlashga majbur qilishlari kerak. Agar tashkilotlar ba'zi fikrlarga aniqlik kiritmasalar, ular o'zlari yoki professional kompaniyalar yordamida savollariga javob olishlari kerak. MHXS ning inglizcha versiyasida (asl nusxada) ko'plab mamlakatlarda aniq yozishma va ekvivalentiga ega bo'lmagan juda ko'p tushunchalar mavjud. Xalqaro standartlar bilan ishlovchi mutaxassislar esa atama va tushunchalarning yangi tizimidan foydalanishlari yoki so'zlarning ingliz tilidagi variantlarini o'z lug'atiga qabul qilishlari kerak. Bu holda asosiy echim buxgalteriya hisobi yurituvchilar uchun maqsadli dasturlar va o'quv kurslarini, hamda raqamli avtomatlashtirilgan dasturlarni ishlab chiqishdir. Bunda asosiy e'tibor buxgalteriya hisobining texnik masalalariga emas, balki hisobotlarni tuzish va mustaqil ravishda tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar sharhi.

MHXSni joriy etish, har qanday boshqa jarayon kabi, qiyinchiliklar va tizimdan-tizimga o'tish bilan bog'liq muammolar bilan chambarchas bog'liq. Bu borada izlanish olib borgan olim Z.N.Qurbanovning fikricha "Respublikamizda buxgalteriya hisobini bosqichma-

bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jahon integrasiyasiga yanada kengroq kirib borish imkoniyatini beradi. Bu esa Respublikamizda buxgalteriya hisobini isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi bosqichi bo'lib qoladi" (Qupbanov Z.N., Akpamov F.A. 2015). Bundan tashqari, S.N.Tashnazarovning Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o'tish zaruriyati – "Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida turli mamlakatlarda sifatli, taqqoslanadigan va ishonchli hamda uyg'un axborotlarni shakllantirishda yagona yondashuvni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi" (S.N.Tashnazarov 2016) degan mulohazalari orqali bugungi kun dolzarb mavzusiga aylanayotgan xalqaro standartlarni qabul qilish ahamiyatini ochib beradi. Biroq qo'shimcha tarzda yana shuni xam keltirib utish lozimki, Maslov B.G. va Nikitenko B.N. larning qayd etishicha, "Barcha mamlakatlarda xalqaro standartlarni joriy etishdagi asosiy muammolardan biri malakali mutaxassislar etishmasligi"dir. (Maslov B.G., Nikitenko B.N. – 2016) Qayd etilgan jarayonlarni kam vaqt sarflagan va yuqori aniqlikda tayyorlash va taxlil qilib chiqish, mutaxassislarning etishmasligini kompensatsiyalash uchun eng samarali omil tizimni raqamlashtirishdir. Bu, foyda solig'i hisobiga tegishli bo'lgan me'yorlarni soddalashtirish va shu bilan birga barchaga tushunarli bo'lgan xolatdagi tizimga keltirish, foyda solig'idan qochish xolatlarni oldini olish, xamda byudjetga tushumlarni oshirishga erishish uchun muxim vositalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. BHXS 12-Foyda soliqlari standartini milliy buxgalteriya hisobi va soliq hisobi tizimiga integrasiyalash va integrasiyalashgan tizimni avtomatlashtirish va elektron hisob yuritish tizimiga o'tkazish iqtisodiyotni rivojlantirishdagi kechiktirib bo'lmayligan vazifalardan xisoblanadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish xususida ham olimlarni fikri ikkiga bo'linadi. Birinchi gurux olimlarning fikriga ko'ra iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish va taraqqiy ettirish uchun iqtisodiyot tarmog'iga raqamli texnologiyalarni tezlik bilan joriy etish kerak. Ularning fikriga ko'ra raqamli texnologiyalar iqtisodiyotni shiddat bilan rivojlanishiga, ma'lumotlar bazasini kengayishiga, ish vaqtining tejalishiga, ma'lumot yig'ish jarayoniga ketadigan vaqtning kamayishiga olib keladi. Buning natijasida soxa rivojlanadi. Ikkinchi guruxning fikricha eng avvalo siyosat, xuquqiy me'yorlar va iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi raqamli texnologiyalar sanoatining vujudga kelishi va foydalanilishi darajasini belgilab berishda asosiy rol o'ynaydi. Chunki iqtisodiyot taraqqiy etishi bilan birgalikda raqamlashtirishga va texnologiyalardan foydalanishga extiyoj kuchayadi va bu extiyojlar o'z-o'zidan taklifni keltirib chiqaradi (Oleynik L., Abdiraxmanov A. 2018). Bu mulliflar sirasiga L.Oleynik, A.Abdiraxmanovlarni kiritish mumkin.

Tadqiqot doirasida axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyot sohasida takomillashtirish bo'yicha mahalliy olimlarimizdan J.X.Kambarov, N.J.Maxmudovlar o'zining ilmiy ishlarida "sanoat iqtisodiyoti telekommunikatsiya qoidalarini belgilashda, texnik standartlarni belgilashda tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab - quvvatlashda muhim rol o'ynadi, bu esa o'z navbatida innovatsion iqtisodiyotning yangi sektori-raqamli bozorni paydo bo'lishiga yordam berdi"

(Kambarov J.X., Maxmudova N.J. 2016.) degan fikrlarni bildirgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturida: "Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlar, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalarini qo'llagan holda, an'anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin" (Ўз.Р. ПФ-4947 07.02.2017) degan fikr bildirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

MHXS bo'yicha buxgalteriya hisobining soliq solishga ta'sirini o'rganishda, foyda solig'iga daxl qilishi mumkin bo'lgan xolatlar tahlil qilingan. Soliq kodeksi qoidalarini MHXS qoidalariga hamohangligi o'rganilgan. Soliq to'lovchilarning daromadlari va (yoki) xarajatlari (zararlari)ning ayrim turlari hisobga olinmasligi yoki maxsus qoidalar bo'yicha hisobga olinishi mumkinligi analiz va sintez, qiyosiy tahlil, statistika, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv va boshqa usullardan foydalanilgan holda tahlil qilib o'rganilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

MHXS bo'yicha buxgalteriya hisobining yuritilishining soliq solishga ta'siri haqida gapirilganda, buxgalteriya hisobining MHXS asosida olib borilishi foyda solig'i bo'yicha soliq summasi hisob-kitobi bilan ahamiyatli muammolarni yuzaga keltirmasligi kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, Soliq kodeksi foyda solig'i bo'yicha soliq solish maqsadlarida tan olishning konseptual tamoyilini o'z ichiga oladi, ya'ni soliq to'lovchilarning daromadlari va (yoki) xarajatlari (zararlari)ning ayrim turlari hisobga olinmasligi yoki maxsus qoidalar bo'yicha hisobga olinishi mumkin. Amalda bu borada uz echimini kutayotgan eki rasmiy sharx va ko'rsatmalar kutayotgan muammolar ham borki, ularning ba'zilariga quyida to'talib o'tmoqchimiz:

Birinchidan korxonaning MHXS bilan ishlash sharoitida tushunmovchiliklar yoki noaniqliklar yuzaga kelgan taqdirda tushuntirishlar olishning aniq va tartibga solinadigan mexanizmi mavjud emas. Xorijiy mutaxassislarning maslahat berish narxi juda yuqori, buxgalteriya avtomatlashtirilgan tizimlarini BXMS dan MHXS lariga muvofiqlashtirish katta xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli, MHXSni amaliyotga tatbiq etishning asosiy muammosi mutaxassislar psixologiyasining xalqaro standartlari va amaldagi buxgalteriya amaliyoti o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ikkinchi muammo - moliyaviy hisobotlarni MHXSga o'tkazish. MHXSni qabul qilgan ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti G'arbdagidan juda farq qiladi. Bu moliyaviy bozorlarning yo'qligi yoki ularning rivojlanmaganligi bilan xam izoxlash mumkin. Bu, o'z navbatida, xalqaro buxgalteriya tushunchalarini qo'llashning mumkin emasligiga olib keladi. Mamlakatimizda xam "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi"gi Qonun qabul qilingandan 2007 yilgacha rivojlanish bosqichi yuz berdi. Jahon iqtisodiyoti 2008 yildan boshlab moliyaviy-iqtisodiy inqirozga yuz tutdi. Albatta, bunday inqiroz iqtisodiyotni tartibga soluvchi mexanizmlarni, xususan, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining ham

o'zgarishiga olib keldi. Natijada, xalqaro hisob standartlarining mazmun- mohiyatida ham tub o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu inqiroz mamlakatimiz iqtisodiyotiga keskin ta'sir qilmadi. Biroq, mamlakatimizning iqtisodiy integratsiyasini inobatga oladigan bo'lsak, vaziyat xalqaro standartlarga mos holda takomillashib borishni taqozo qiladi. Afsuski, xalqaro standartlardagi o'zgarishlar o'z vaqtida milliy standartlarimizda o'z aksini topmadi. Natijada, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha milliy standartlarimiz bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi tofovut kengayib bordi. Shu jihatdan, bugungi kunda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IAS, IFRS) moslashuvini amalga oshirishni ob'ektiv zarurat deb bilamiz. Terminologiyada ko'pincha xalqaro standartlarda bizning qonunchilikda beriladigandan farq qiladigan tushunchalar mavjud bo'ladi. Shunday ham bo'ladiki, umuman, shunga o'xshash iqtisodiy hodisalar bizning moliyaviy sharoitda mavjud emas. Bir xil, biroq ma'nosi bo'yicha turlicha bo'lgan tushunchalar mavjud. MHXSda ko'p miqdorda "yangi" terminologiya mavjudligi (pullarning vaqt qiymati, haqqoniy qiymat, aktivlarning qadrsizlanishi va boshqalar) va aniq reglamentlarning mavjud emasligi, shuningdek milliy qonunchilik bazasida bunday tushunchalar va ish namunalari mavjud emasligi BHMS va MHXSni turli qirg'oqlarga ajratadi.

MHXS avvalboshda hisobni yuritish standartlari hisoblanmagan, shu bois schyotlar rejasi reglamenti va ularning o'zaro ta'siri shunchaki mavjud emas. Bizning buxgalterlarda esa eng talab qilingan standart - bu 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. U hisobda u yoki boshqa operatsiyani hisobda qanday aks ettirishga 90% javob beradi. MHXSda kontraktiv yoki kontrpassiv tushunchalari, xuddi shuningdek bunday schyotlarning ishlash tartibi mavjud emas. MHXS bo'yicha hisob yuritish amaliyotida schyotlar turlari bo'yicha alohida bo'linadi va shunda har bir schyot - faqat passiv (daromadlar schyotlari) yoki faqat aktiv (xarajatlar schyotlari) bo'ladi.

Hisobot formatida BHMS hisobotni shakllantirish, rasmiylashtirish va taqdim etish tartibini belgilaydi, bu vaqtda MHXS faqat hisobot "to'plami"ni va ularni shakllantirish qoidalarini beradi. Shuningdek hisobotni taqdim etish valyutasi masalasi yuzaga keladi. MHXSda siz hisobot maqsadiga bog'liq holda taqdim etish valyutasini tanlashingiz mumkin - milliy qonunchilikda - faqat so'm. MHXS bo'yicha hisobotni tuzishda tashkilot unda aks ettiriladigan davrni o'zi tanlashi mumkin, BHMSda - bu har doim moliyaviy yilga tenglashtirilgan kalendar yili.

MHXSda hujjatni rasmiylashtirishga yoki umuman, uning mavjudligiga bog'lash yo'q. Operatsiya amalga oshirish holati va uning iqtisodiy mohiyati, mazmuniga muvofiq aks ettirilishi kerak. Albatta, bu MHXS bo'yicha hisobda boshlang'ich hujjatlar, shartnomalar va invoyslar, dalolatnomalar mavjud emasligini anglatmaydi. Bularning barchasi milliy qonunchilikka bog'langan holda mavjud. Biroq ushbu hujjatlar - ro'y bergan holatlarga nisbatan ikkilamchidir. Mamlakatimiz soliq qonunchiligida esa birlamchi xujjatlarning muximligiga aloxida urg'u beriladi va ularning belgilangan tartibda yoki shaklda rasmiylashtirilmaganligi xam soliq oqibatlarini keltirib

chiqaradi. Buxgalteriya hisobi me'yorlariga muvofiq mazmunning shakldan ustunligi tamoyilini soliq qonunchiligi talablari jilovlab turganligi sababli, operatsiyalarni xujjatlar bilan tasdiqlash jarayonida shakl, avvalgi o'rinlarda e'tibor qaratiladigan xolat bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda ta'kidlanadigan yana bir muxam jixat, raqamlashtirishni amalga oshiruvchi organlar xam buxgalteriyadagi mazmunni to'liq yoritib berish masalasini chaklab qo'yishi va shakl qat'iy belgilab qo'yilganligi, shu xisobotni hisobot tuzuvchilar tomonidan o'zgartirilishiga yoki qo'shimcha to'ldirilishiga imkon bermasligi hisobotni mazmunini yoritilishidagi professional muloxaza yuritishga o'rin qoldirmayapti.

BHMSda "professional mulohaza" tushunchasi biz shunchaki hujjatlarning birlamchiligiga ko'nikib qolganimiz uchun mavjud emas. Professional mulohaza ob'ektlarni hisobga olish uslubiyatlarini deyarli har qanday tanlashda zarur. Professional mulohaza MHXSni qo'llash amaliyotida - buxgalterlik kasbi madaniyatining eng muhim elementi. Bularning barchasi - yuzada joylashgan tafovutlar xisoblanadi.

MHXSga muvofiq foydani aniqlash va BHMS talablari bo'yicha foydani aniqlash usullarida bir qancha moslik va farqli jixatlar mavjud. Bundan tashqari soliq qonunchiligiga muvofik soliqqa tortiladigan foydani aniqlashni aloxida tizimi amal qiladi. «Foyda solig'i hisob-kitobi» shaklida «soliq bazasiga doimiy ravishda qo'shiladigan farqlar», «soliq bazasiga vaqtinchalik qo'shiladigan farqlar» va «soliq bazasidan vaqtinchalik chegiriladigan farqlar» alohida qatorlarda ko'rsatilsada, biroq ularga tuzatilgan foyda summasiga tegishli foyda solig'i summolari alohida-alohida aniqlanmaydi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida faqat byudjetga to'lanadigan foyda solig'i summasi aniqlanadi va bu summa, mos ravishda, hisoblangan foyda solig'i sifatida tan olinadi. Hisoblangan va byudjetga to'lanadigan foyda soliqlari o'rtasida farq maxsus aniqlanmaganligi tufayli, mos ravishda, hisob-kitobda «kechiktirilgan soliq aktivlari» yoki «vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i» va «foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar» ko'rsatkichlari foyda solig'i hisob-kitobida maxsus qatorlarda aks ettirilmaydi. Bunday tartibni qonun hujjatlari bilan belgilanishi foyda solig'iga doir «kechiktirilgan soliq aktivlari» yoki «vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i» va «foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar» ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuziladigan moliyaviy hisobot shakllariga to'g'ri transformatsiya qilinishiga ham imkon beradi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarini amaliyotda ishlatilishiga erishish uchun amaldagi foyda solig'i hisob-kitobi takomillashtirish talab etiladi. Takomillashtirish bilan bir vaqtda ushbu soxani raqamlashtirish, hamda raqamlashtirish bilan bir vaqtda kamchiliklarni to'g'rilab borish transformatsiya xarajatlari va vaqtini sezilarli darajada iqtisod qilinishiga hissa qo'shadi. Raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishda investor va foydalanuvchilar manfaatlaridan kelib chiqib, Hisobot shakllarining kompaniyaning moliyaviy holati, operatsiyalari va faoliyat natijalari haqida batafsil tushuncha berganligiga aloxida ahamiyat berish zarur bo'ladi. Shu bilan birga boshqa foydalanuvchilarga aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish uchun moliyaviy

hisobot, hisobot tuzuvchi kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadi, xarajati va moliyaviy natijalari to'g'risida axborotni ochib berilishini ta'minlashi muxim hisoblanadi. Jumladan investorlar va ishtirokchilarning qiziqtirgan foydani aniqlash masalasida xam ma'lumotlar aniq va ishonli bo'lishini ta'minlash zarur. Transformatsiya va raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishda ayni vaqtda quyidagi asosiy takliflar keltiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Avvalo, 12-sonli "Foyda soliqlari" buxgalteriya hisobining xalqaro standarti va soliq kodeksiga muvofiq xisoblanadigan foyda solig'i o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tushunish lozim. Bular asosan, buxgalteriya foydasi va soliqqa tortiladigan foyda, joriy foyda solig'i va kechiktirilgan foyda solig'i, vaqtinchalik farqlar tushunchasidir. Foyda hisobini yuritish maqsadida hisobni avtomatlashtirish, bu jarayonni xuquqiy asosini yaratish va nizolarni xal qilishda me'yoriy xujjat sifatida foydalanish maqsadida, O'zbekistonda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga uyg'unlashgan va buxgalteriya xisobida foydalaniladigan standart xujjatni ishlab chiqish, ushbu xujjat matnida soliq va buxgalteriya hisobida foyda solig'ini xisoblashdagi farqlarni hisobini olib borish tartibini belgilash, investitsiyalar oqimiga va xo'jalik sub'ektlari va soliq xizmati organlari o'rtasida soliq nizolarini yuzaga kelish xavfini qisqartirishga xizmat qiladi. Shuningdek tizimni raqamlashtirishda xuquqiy asos bo'ladi.

Soliq xizmatining my.soliq.uz xisobot portalining ish xaqi hisobotlari ma'lumotlari, e-ombor, e-ijara kabi dasturiy maxsullarni elektron ma'lumotlari, Vazirlar maxkamasining 14.08.2020 yildagi 489-son Qaroriga asosan amaliyotga joriy etilgan elektron hisobvara q fakturalari tizimidagi MXIK – maxsulot, xizmatlar identifikatsiya kodlari yordamida foyda solig'i xisobotini asosiy daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlarini shakllantirish imkonini taxlil qilib ko'rish va natijasiga ko'ra to'lik yoki qisman raqamlashgan hisobot tuzish tizimini ishlab chiqish, soxa rivojiga katta xissa qo'shadi. Shuningdek ushbu jamlanma raqamlarni yoyilmalarini aks ettirish uchun qo'shimcha qator va ustunlarni qo'shib, solik agentlari uchun ko'rsatkichlarni aniqlashtirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari, profesional buxgalter va auditorlar o'rtasida xam kengroq tushuntirish ishlarini olib borish, davra suxbatlari tashkil etish va o'zaro fikr almashish, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga uyg'unlashgan, hamda milliy buxgalteriya va soliq hisobida foydalaniladigan dasturiy ta'minot tizimini yangidan ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilishda qator yaxshi fikr va takliflarni yig'ish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» в новой редакции от 13 апреля 2016 года № 404.
2. O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son.
3. 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidentining PQ-4611-sonli qarori.
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti-12 "Foyda soliqlari" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan chop etilgan rasmiy tarjima.
5. Rizaev Nurbek Kadirovich, Khotamov Komil Rabbimovich. Methodology of transformation of financial reporting to international standards in Uzbekistan (evidence from commercial banks). International Journal of Marketing and Technology Vol. 11 Issue 10, October 2021 ISSN: 2249-1058 Impact Factor: 6.559 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com
6. Rizaev N.K, Barakaev O.O. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning navbatdagi bosqichiga o'tildi. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida fiskal siyosatni takomillashtirish muammolari" mavzusida halqaro konferensiya O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti. 2022 yil 4 noyabr.
7. Qurbanov Z.N., Akpamov F.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarb masalalari. «Biznes-ekspekt» jurnali. 2015 yil. 4-son
8. S.N.Tashnazarov "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o'tish zaruriyati" ilmiy maqola Iqtisod va Moliya 2016 yil 7-son.
9. Олейник Л., Абдирахманов А. "Узбекистан переходит к использованию технологии блокчейн и крипто-активов" Журнал Рынок, деньги и кредит, 2018. №7, 23-28-бетлар.
10. Alekseenko O.A. Sifrovizatsiya globalnogo mira i rol gosudarstva v sifrovoy ekonomike / O.A. Alekseenko, I.V. Ilin // Inform. obshchestvo. – 2019.
11. Kambarov J.X., Maxmudova N.J. Задачи управления рисками на предприятии // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. № 5. S. 88-89
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni № PF-4947 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"
13. Maslov B.G., Nikitenko B.N. Трансформация российской отчетности в соответствии с МСФО// Управленческий учет.- 2016.- №1.